

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№10

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025 oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr,
51 sahifa, oktyabr, 2025-yil.*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'aforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayeich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayeich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayeich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayeich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIY TAJRIBASI	37
Kadixodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
PECULIARITIES OF THE IRRIGATION WATER DELIVERY PAYMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	41
Muminov Sherzod Kholmiraevich	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	



UDK: 338.5:658.5(575.3)

MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO'LLARI

Sultanov Dilshod Normamatovich

Qarshi davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

orcid: 0000000311519943

Annotatsiya: Mazkur maqolada mahalliy xomashyo resurslaridan samarali foydalanish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish masalasi tahlil qilinadi. Import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish, transport xarajatlarini kamaytirish, logistika tizimining samaradorligini oshirish hamda ichki resurslardan oqilona foydalanish orqali xarajatlarni qisqartirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, tahlillar asosida iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan takliflar ham ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: mahalliy xomashyo, ishlab chiqarish xarajatlari, iqtisodiy samaradorlik, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar, logistika, tannarx, resurslardan foydalanish.

Abstract: This article analyzes the issue of optimizing production costs through the effective use of local raw materials. Ways to reduce costs through the production of import-substituting products, reducing transportation costs, increasing the efficiency of the logistics system, and rational use of domestic resources are considered. Also, based on the analysis, proposals are put forward to increase economic efficiency.

Keywords: local raw materials, production costs, economic efficiency, import-substituting products, logistics, cost, resource use.

Аннотация: В данной статье анализируется вопрос оптимизации себестоимости продукции за счет эффективного использования местного сырья. Рассматриваются пути снижения себестоимости за счет производства импортозамещающей продукции, снижения транспортных расходов, повышения эффективности логистической системы, рационального использования внутренних ресурсов. Также на основе анализа выдвигаются предложения по повышению экономической эффективности.

Ключевые слова: местное сырье, себестоимость продукции, экономическая эффективность, импортозамещающая продукция, логистика, себестоимость, использование ресурсов.

KIRISH

Bugungi globallashtirish sharoitida ishlab chiqarish jarayonida samaradorlikni oshirish, tannarxni pasaytirish va ichki resurslardan oqilona foydalanish masalalari har qachongidan ko'ra dolzarbdir. Xususan, O'zbekiston iqtisodiyotida ham xorijiy xomashyo va materiallarga qaramlikni kamaytirish, mahalliy resurslar hisobiga ishlab chiqarish zanjirini optimallashtirish orqali xarajatlarni qisqartirish muhim vazifa sifatida belgilangan. Mahalliy xomashyo bazasidan to'liq foydalanish orqali nafaqat ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, balki iqtisodiy mustaqillikni mustahkamlash, ichki bozorni barqarorlashtirish va eksportbop mahsulotlar ulushini oshirish mumkin.

MAVZUGA DOIR DABIYOTLAR TAHLILI

Mahalliy xomashyo bazasidan foydalanish iqtisodiy samaradorlikni oshirish va ishlab chiqarish tannarxini pasaytirishda muhim omil hisoblanadi. Bu masala bo'yicha ko'plab mahalliy va xorijiy adabiyotlarda nazariy asoslar, amaliy tajribalar, tarmoqlar kesimidagi tahlillar keng o'rganilgan. Quyida ushbu mavzuga doir asosiy ilmiy manbalar, qonunchilik hujjatlari, statistik nashrlar va amaliy tadqiqotlar tahlil qilinadi.

O'zbekiston olimlari tomonidan mahalliy resurslardan foydalanish masalasiga e'tibor qaratilgan: Toshqulov A. o'zining "Iqtisodiy samaradorlik va resurslardan foydalanish" nomli monografiyasida ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishning nazariy asoslarini bayon etgan. Muallifning fikricha, mahalliy xomashyo bazasidan foydalanish bir vaqtning o'zida iqtisodiy, ekologik va logistika afzalliklarini beradi.[5]



Saydullayev D. esa “Resurs tejovchi texnologiyalar va ularning iqtisodiyotdagi o’rni” nomli asarida xomashyo isrofini kamaytirish, qayta ishlash va mahalliyashtirish darajasini oshirish orqali korxonalar xarajatlarini 25–30% gacha kamaytirish mumkinligini misollar bilan ko’rsatadi.[6]

Sattorov S. esa o’z tadqiqotlarida sanoat ishlab chiqarishida lokal xomashyo turlaridan foydalanish va buning natijasida transport xarajatlarining kamayishini tahlil qilgan.

Isroilov N esa o’z ilmiy tadqiqotlarida milliy resurslar asosida ishlab chiqarish orqali tarmoq raqobatbardoshligini oshirish mumkinligi ta’kidlagan. Uning “milliy ustunlik omillari” nazariyasida xomashyo bazasi strategik ustunlik manbai sifatida ko’rsatilgan.[7]

World Bank (2020) va UNIDO (2022) hisobotlarida esa, mahalliy resurslar asosida iqtisodiyotlarni modernizatsiya qilish tajribalari (Xitoy, Turkiya, Hindiston) statistik misollar bilan keltirilgan.[8]

TADVIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida o’tkazilgan tahlillar shuni ko’rsatdiki, mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish ishlab chiqarish xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin. Asosiy natijalar quyidagilardan iborat. Importga bog’liqlik darajasi kamayadi – Mahalliy xomashyo ulushini 15–20% ga oshirish orqali tashqi importga qaramlik sezilarli darajada kamayib, ishlab chiqarish tannarxini o’rtacha 12–18% gacha qisqartirish imkoniyati mavjudligi aniqlangan. Transport xarajatlari pasayadi – Xomashyoni uzoq masofalardan olib kelish zarurati qisqaradi. Mahalliy bazadan foydalanilganda logistika xarajatlari 25–30% ga kamayishi kuzatilgan. Ishlab chiqarish jarayonida vaqt tejaladi – Xomashyoning tezkor yetkazilishi ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta’minlab, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligini 10–12% ga oshirgan. Mahalliy bozor infratuzilmasi rivojlanadi – Mahalliy xomashyo bazasi bilan ishlab chiqarish kooperatsiyasi kengaygani sayin, hududlarda yangi kichik va o’rta korxonalar tashkil etilishi, qo’shimcha ish o’rinlari yaratilishi va mahalliy iqtisodiyotning umumiy o’sishi kuzatilgan. Iqtisodiy samaradorlik ortadi – Tahlillarga ko’ra, ishlab chiqarish tannarxi kamayishi mahsulotning raqobatbardoshligini oshiradi va eksport salohiyatini kuchaytiradi. Shu yo’l bilan korxonalar foydasi 20–25% gacha ortishi mumkinligi aniqlangan.

Mahalliy xomashyo bazasidan foydalanish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda strategik omil sifatida qaralishi kerak. O’zbekiston sharoitida bu jarayonning ijobiy jihatlari va ayrim muammolari mavjud:

1. Ijobiy jihatlari:

- Mahalliy resurslardan foydalanish orqali ichki iqtisodiy resurslar to’liq safarbar etiladi.

- Xomashyo ta’minoti qisqa zanjir orqali amalga oshirilishi natijasida tannarxning sezilarli darajada kamayishi kuzatiladi.

- Mahalliy xomashyo asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar ekologik jihatdan ham toza va sifatli bo’lishi mumkin.

2. Muammolar va cheklovlar:

- Ba’zi hollarda mahalliy xomashyo sifat ko’rsatkichlari import xomashyo bilan taqqoslaganda past bo’lishi mumkin.

- Mahalliy ishlab chiqaruvchilar infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi xomashyo bazasidan to’liq foydalanishni qiyinlashtiradi.

- Innovatsion texnologiyalar yetishmasligi sababli xomashyoni chuqur qayta ishlash imkoniyatlari cheklangan.

3. Amaliy ahamiyati:

- Mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish orqali nafaqat ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi, balki hududiy iqtisodiy rivojlanishga ham turtki beradi.

- Ushbu jarayon ichki bozorning barqarorligini ta’minlabgina qolmay, tashqi bozorlarda ham raqobatbardoshlikni kuchaytiradi.

- Mahalliy xomashyo ishlab chiqaruvchilarini qo’llab-quvvatlash orqali davlat budjetiga tushumlar ko’payadi.

4. Strategik istiqbolari:

- Mahalliy xomashyo bazasini mustahkamlash uchun raqamli monitoring tizimi joriy etilishi va xomashyo oqimlari aniq hisobga olinishi lozim.

- Innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilish orqali xomashyo sifatini oshirish mumkin.

- Davlat, xususiy sektor va ilmiy-tadqiqot muassasalari hamkorligida xomashyo resurslarini qayta ishlash klasterlari tashkil etilishi yuqori natija beradi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (2020–2024 yillar) hisobotlarida ishlab chiqarish tannarxi va xomashyo yetkazib berish bilan bog'liq xarajatlar tarkibi yillik asosda berib boriladi. Masalan, 2022-yilda import xomashyolarga asoslangan ishlab chiqarish tannarxi lokal xomashyoga qaraganda 18–22% yuqori bo'lgan.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (ITIM) tomonidan chop etilgan "Import o'rnini bosuvchi mahsulotlar va mahalliy xomashyo ulushi" (2023) nomli tahliliy ma'lumotnomada ayrim sohalarda (qurilish, oziq-ovqat, yengil sanoat) lokalizatsiya darajasi va xarajatlar tahlili taqdim etilgan. Misol uchun, g'isht ishlab chiqarishda mahalliy qum va ohaktoshdan foydalangan korxonalarda ishlab chiqarish tannarxi import xomashyo asosida ishlab chiqaruvchilarga nisbatan 30% arzon bo'lgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mahalliy xomashyo bazasidan foydalanish ishlab chiqarish tannarxini kamaytirishda va iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim omil hisoblanadi. O'zbekistonning mavjud tabiiy, qishloq xo'jalik va sanoat chiqindilari asosidagi resurs salohiyati ishlab chiqarishni ichki imkoniyatlar asosida tashkil qilish uchun yetarli sharoit yaratmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki mahalliy xomashyo manbalaridan foydalanish transport, bojxona, saqlash kabi xarajatlarni 20–40% gacha kamaytiradi.

Ishlab chiqarish jarayonlarining mahalliyashtirilishi valyuta tejash, importga qaramlikni qisqartirish va ichki bozorni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Qayta ishlash va ikkilamchi resurslar tizimini rivojlantirish ekologik barqarorlikni ta'minlaydi. Xomashyo bazasining hududiy taqsimoti hisobga olingan holda ixtisoslashgan sanoat klasterlarini shakllantirish orqali hududiy iqtisodiyotni jonlantirish mumkin. Ayni vaqtda mavjud resurslardan yetarli darajada va samarali foydalanilmayotgani, logistika muammolari, texnologik kechikishlar va investitsiya yetishmovchiligi kabi to'siqlar mavjud bo'lib, bu holat ishlab chiqarish xarajatlarini oshirib, raqobatbardoshlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Mahalliy xomashyo zaxiralarining raqamli bazasini yaratish. Har bir hududdagi mavjud tabiiy, qishloq xo'jalik va qayta ishlanadigan resurslar haqidagi axborotlar yagona elektron platformada jamlanishi kerak. Bu ishlab chiqaruvchilarga tezkor va aniq ma'lumot asosida resurs tanlash imkonini beradi. Xomashyo yetkazib berish bo'yicha logistika infratuzilmasini rivojlantirish Hududlarda "xomashyo omborlari", logistika markazlari va qisqa yetkazib berish zanjirlari tashkil etilishi xarajatlarni kamaytirish va ishlab chiqarishni tezlashtirishga xizmat qiladi. Mahalliy resurslardan foydalanuvchi korxonalarini soliq va bojxona imtiyozlari bilan qo'llab-quvvatlash. Import o'rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqaruvchilarga davlat tomonidan subsidiyalar, imtiyozli kreditlar, texnologik modernizatsiya uchun grantlar ajratilishi kerak. Ikkilamchi xomashyo – chiqindilarni qayta ishlash sanoatini rivojlantirish. Qog'oz, plastmassa, metall va oziq-ovqat chiqindilarini sanoat xomashyosi sifatida qayta ishlash uchun korxonalar tashkil etish orqali bir vaqtning o'zida xarajatlarni kamaytirish va ekologik muhitni asrash mumkin. Sanoat klasterlarini mahalliy resurslarga asoslangan holda shakllantirish. Har bir hududda mavjud xomashyo turlariga mos ixtisoslashgan sanoat tarmoqlari (masalan, paxta – yengil sanoat, ohaktosh – qurilish, g'alla – oziq-ovqat) bo'yicha klasterlar tashkil etilishi kerak. Mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash bo'yicha texnologik ilmiy izlanishlarni rag'batlantirish. Oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalari ishtirokida innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali xomashyo sifatini oshirish va ularning samarali ishlatilishini ta'minlash lozim. Ishlab chiqaruvchilar o'rtasida kooperatsiyani kuchaytirish. Xomashyoni yetishtiruvchi va qayta ishlovchi korxonalar o'rtasida uzoq muddatli hamkorlik tizimini yo'lga qo'yish, bu orqali barqaror ta'minot zanjirlarini yaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF–64-sonli Farmoni. "Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida". – Toshkent, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" farmoni. – Toshkent, 2022.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. "Iqtisodiyot tarmoqlari kesimida ishlab chiqarish xarajatlari tahlili", yillik statistik byulleten. – Toshkent, 2023.
4. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (ITIM). "Mahalliyashtirish darajasi va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar bo'yicha tahliliy axborotnoma". – Toshkent, 2023.
5. Toshqulov A. Iqtisodiy samaradorlik va resurslardan foydalanish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 184 b.
6. Saydullayev D. Resurs tejovchi texnologiyalar va ularning iqtisodiyotdagi o'rni. – Qarshi: Nasaf, 2020. – 156 b.
7. Isroilov N. Qashqadaryo viloyatida mahalliy xomashyo salohiyati va sanoat rivoji (magistrlik dissertatsiyasi). – Qarshi Davlat Universiteti, 2022.
8. Muxtorova G. "Qurilish sanoatida mahalliy xomashyoning iqtisodiy ustunliklari" // "Iqtisodiyot va innovatsiyalar" ilmiy jurnali. – 2022, №4. – B. 112–118.



9. Jalilov B. "Oziq-ovqat sanoatida lokal resurslardan foydalanish samaradorligi" // "Yosh olimlar ilmiy ishlari". – Toshkent, 2021. – B. 74–80.
10. Raxmatullayev Z. "Mahalliy xomashyo asosida innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish" // "Sanoat iqtisodiyoti" jurnali. – 2022, №2. – B. 41–47.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100